



**TO'LQIN HAYIT ASARLARIDA TEMURIY MALIKLAR OBRAZI
BADIY TAHLILI.**

Ziyadullayeva Marjona

Termiz davlat universiteti talabasi.

Ilmiy rahbar: Xamrayeva Muhayyo

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi PHD

O'zbek adabiyotida tarixiy asarlari bilan o'z kitobxonlarining sevimli yozuvchisiga aylangan To'lqin Hayit ijodida Amir Temur va Temuriylar davrining ifodalaniishi alohida o'rinnasida kasb etadi. O'zbek adabiyotida tarixiy mavzularga bag'ishlangan asarlar har doim katta ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Shunday sermahsul asarlaridan "Vafo malikasi", "So'nggi temuriy malika", "Buyuk salohiyat sohibi", "Amir Temur xazinasi" va "Amir Temur haqida hikoyalar" kabi asarlari aynan Temuriylar davrini yaxshi o'rganishimizda dasturi amal vazifasini bajaradi.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha asarlarida temuriy malikalar juda chiroqli, mazmunli va ohangdor jumlalar bilan tasvirlangan. Yozuvchining misol tariqasida birgina "So'nggi temuriy malika" hikoyasini oladigan bo'lsak, asar qahramoni, ya'ni so'nggi temuriy malika Sohibjamol obrazi har jabhada matonatli, sabr-toqatli haqiqiy o'zbek ayoli siymosida gavdalantirilgan. Sohibjamol obrazida temuriylarga xos mardlik, qat'iyat, jasurlik va dovyuraklik belgilari o'ziga xos tarzda yoritilgan, bunday jihatlarini har bir suhbatlari, yohud tasviriy vositalar orqali sezilarli tarzda ta'kidlanadi.

Hikoyaning har bir qismida Sohibjamolning xuddi "Vafo malikasi" asaridagi O'ljoy turkon oqadek vafodor yor ekanligiga amin bo'lamiz. Har ikkala temuriy malikalarda ham o'ziga xos bo'lgan vafodorlik, oilasiga bo'lgan sadoqat unsurlari bir xil juda chiroqli tasvirlanadi. Masalan, "So'nggi temuriy malika"



asarida Sohibjamolning ruhiy holatini, yordamchi obrazlar orqali yanayam obrazning mukamalligini kashf etadi. Asardagi Toshqon kofir qiyofasini tasvirlashda bo'rttirib tasvirlangan tasviriy unsurlar asar mohiyatini qahramonlar xarakteristikasini yanayam batafsil yoritgan. Sohibjamolning boshiga ne ne sinovlar kelsa ham u aslo ortga chekinmadi, zero ortga qaytish Temuriylarga xos emas edi. Qiyinchiliklar kelganda, Sohibjamol ayollik hissiyotlari bilan ko'ziga dur kabi yog'ilgan yoshlarni artib, tezda o'ziga kelib buyuk Temuriylar avlodidan ekanligini yodga olib, shunga xos qat'iyatni o'zida mujassam eta olgan obraz sifatida qaraladi.

Ustoz To'lqin Hayit tomonidan bu xususiyatlar tarix va zamonni uzviy bog'laganligidan dalolat beradi. Negaki? O'ljoy turkon va Sohibjamol zamonasi orasida ancha muddat bo'lishiga qaramasdan qadriyat va an'analari xalqona ayollarga xos fazilatlar saqlanib qolgan. Masalan, Sohibjamol tomonidan "Temuriy malikalar uchun xiyonat yotdir, begin! Shavkatli bobom boshida tegirmon toshi o'ynaganida, pirlari Xorazm tomonlarga ketib jon saqlashni buyurganlar. Biz ham bir muddat, bu kofirlar zamoni zavol topguncha, Afg'on tomonlarda jon saqlasak, degan o'ydaman!" – dedi erim nima deydi " degan mulohaza bilan, bir oz tortinib, iymanib..."¹.

Hikoya voqealari 1930-yillarda bo'lishiga qaramasdan, voqealar Temuriylar davri bilan o'zaro bog'lanadi. Hikoyada nafaqat malikaning ayanchli taqdiri balki, siyosiy tuzim bilan bog'liq jarayonlar ham aks ettiriladi. O'ttizinchi yillar tuzumidan aziyat chekkan insonlar hayoti birgina sermazmun jumlalar orqali yoritilgan. Ushbu hikoyada nafaqat o'ttizinchi yillardagi siyosiy muhit, balki Temuriylar sulolasiga xos sharaf va oriyat, ayol obrazining yuksak axloqiy qiyofasi tasvirlangan.

¹. To'lqin Hayit. "So'nggi temuriy malika". Hikoya. ziyo.uz, 2022 yil



Hikoyadagi voqealar to'qima emas, balki tarixiy voqelikka asoslangan holda tasvirlanadi. Bu esa ijodkorning o'ziga xos uslubidan darak beradi. Ustoz To'lqin Hayitning hikoya va romanlarida malikalar taqdiri o'ziga xos bir o'zgacha tarzda bayon etiladi. "Vafo malikasi" asarida ham O'ljoy turkon va uning qizi Sultonbaxtbegimlar ham temuriy malikalarga xos fazilatlar bilan gavdalanadi. Malikalar nafaqat vatanparvar ayol, balki bir avlodning madaniy, ma'naviy axloqiy belgilarini o'zlarida mujassam etgan timsollar sanaladi. Ularning erkagu ayollarga xos fazilatlarini uyg'unlashtirgan holda tasvirlanishi yozuvchining yaratuvchanligidan darak beradi. Ustoz To'lqin Hayitning asarlaridagi malikalarning fidoyiligi, matonati, sabr-toqati va oilaga bo'lgan muhabbati nafis uslubda ochib berilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, ustoz To'lqin Hayitning "So'nggi temuriy malika" hamda "Vafo malikasi" asarlari nafaqat adabiy asar, balki tarixiy hujjat darjasidagi manba sifatida ham qimmatga egadir. Ularda milliy o'zlik, vatanparvarlik, ayol sha'ni va insoniylik fazilatlari alohida o'rinni olgan. Bu asarlari orqali yozuvchi nafaqat o'tmishdagi, umuman olganda bugungi kunda ham temuriy ayollar malikalarga xos ruhiyatini, ma'naviy kuchini, matonatini ko'rsata olgan. Qolaverasa, bugungi kunda ham temuriy malikalarning izdoshlari jasoratli, matonatli va vafodor ayol qizlarimiz yo'q emas, ular haqiqiy ajdodlarga munosib avlodlardir.